



INFORMATIKA DARSLARI UCHUN KO'RGAZMALI
QUROLLAR TAYYORLASH

Mamatova Zilolaxon Xabibulloxonovna

*Farg'ona davlat universiteti dotsent,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

E-Mail: mamatova.zilolakhon@gmail.com

Ergasheva Mahliyoxon Nuriddin qizi

Farg'ona davlat universiteti 3 – kurs talabasi

E-Mail: mahilyoyoqubova27@gmail.com

Annotatsiya: *Informatika darslari uchun ko'rgazmali qurollardan foydalanish o'quvchilarni qiqqatini jamlashga, darsni tez o'zlashtirib olishga, boshqa narsalar bilan chalg'imaslikka yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *Ko'rgazmalilik, sichqoncha, klaviatura, noutbook, printer, informatika o'qitish metodikasi.*

Annotation: *Using visual aids for computer science lessons helps students concentrate, learn the lesson quickly, and avoid distractions.*

Key words: *Demonstration, mouse, keyboard, laptop, printer, computer science teaching methodology.*

Аннотация: *Использование наглядных пособий на уроках информатики помогает учащимся сосредоточиться, быстро усвоить материал урока и избежать отвлекающих факторов.*

Ключевые слова: *Демонстрация, мышь, клавиатура, ноутбук, принтер, методика преподавания информатики.*

Krish.

Informatika o'qitish metodikasi – bu informatikani o'quv predmeti sifatida va turli yoshdagi talabalarga informatikani o'rgatish jarayonining qonuniyatlarini o'rganadigan fandır.




Ko'rgazmalilik tamoyili boshqa fanlarni o'qitishdagi kabi, informatikani o'qitish jarayonida ham asosiy va muhim hisoblanadi. Ushbu tamoyil qadim zamonlardan beri qo'llanib kelinayotgan mashhur o'qitish tamoyillaridan biridir. Ushbu tamoyil shunday zaruratni keltirib chiqaradiki, unga ko'ra o'quvchilar miyasida hosil bo'ladigan tasavvur va tushunchalar bevosita o'rganilayotgan predmet, masalan, kompyuterdan olinadigan idrokiga asoslangan bo'lishi lozim.

O'qituvchining bayoni, uning tushuntirishi aniq, ravshan obrazlarni o'z ichiga olishi, o'rganilayotgan savollarning mohiyatini ko'rgazmali tasvirlovchi ishonchli misollar bilan mustahkamlab borilishi kerak. Mavzuning bayoni doskadagi va o'quvchilar daftaridagi yozuvlar bilan birgalikda olib boriladi. Doskada yozuv va rasmlarni o'qituvchi tushuntirayotgan paytda, o'quvchilar esa doska oldida javob berayotganda bajariladi.

Doskadan foydalanish o'qitishdagi muhim mezondir. Masala yechishda takrorlashda, o'quvchilardan so'rashda, hullas, barcha hollarda to'la ko'rgazmalilik bo'lishi lozim. Doskadagi rasmlar bilan bir qatorda o'qitishda ko'rgazmalilik jadvallar, diapozativlar, kinofilmlar, kodoskoplar, proeksion apparatlar va boshqalar bilan namoyish etiladi. Jadvalning roli ikki xil bo'lishi mumkin. Birinchidan, jadvaldan o'qituvchi dars jarayonida, sinf oldida mavzuni tushuntirish paytida foydalanishi mumkin. O'qituvchilarga diapozitivlar va proksionapparatlar uchun plyonkalardan foydalanish katta yordam beradi. Diapozitivlarni o'qituvchining o'zi kompyuterdan yoki printer uchun maxsus varaqlardan foydalanib tez va oson tayyorlashi mumkin. Diapozitivlar barcha o'qituvchilar tomonidan yaxshi ko'riladigan katta o'lchamdagi tasvirlarni hosil qilish imkonini beradi, lekin foydalanganda sinf xonalari qorong'ilatirilish kerak bo'ladi. Bu esa ayrim noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Agar epidiaskop bo'lsa, ekranga shaffof bo'lmagan tasvirlarni ham proeksiyalash mumkin. Bunda kitob va jurnallardagi rasmlardan ham foydalansa bo'ladi. Hozirgi kunda zamonaviy multimedia videoproektorlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ular tasvirni bevosita kompyuterdan katta ekranga proyeksiyalashga imkon yaratadi. Kompyuterdagi rasmlar bilan bir qatorda o'qitishda ko'rgazmalilik jadvallar, sxemalar, filmlar,



multimediali videoproyektorlar orqali namoyish etiladi.



Avtofokus metodi

Avtofokus metodi zerikarli darsning oldini oladi, o'quvchilar e'tiborini darsga qaratishga yordam beradi, tinglovchilarda hushyorlikni oshiradi.


Qo'llanilishi: Dars boshlanishi bilan o'quvchilarga quyidagi noutbookni sur'ati sichqonchani sur'ati, printerni sur'ati va klaviaturani sur'ati tushirilgan ko'rgazmali kartochkalar tarqatib chiqamiz.




Doimgidek darsni boshlayveramiz va dars davomida kutilmaganda quyidagi kartochkalardan birini aytamiz. Masalan, sichqoncha. Sichqoncha kartochkasi bor o'quvchilar o'rinlaridan turishadi va ularga sichqonchaga oid savollar beriladi. Savolni o'tirgan o'quvchilar berishadi.

Shunda barcha o'quvchilarni ziyrakligi oshadi va bor e'tiborlari darsga, mavzuga qaratiladi. Darsdan so'ng faol ishtirok etgan o'quvchilarni rag'batlantiramiz.

Noutbook haqida savollar.



Sichqoncha haqida savollar.



Printer haqida savollar.



1.

1. Birinchi printer qachon paydo bo'lgan.
(1950 – 1960)

2.

1. Printerlarning turlari nechta. (3 ta)

3.

1. Nechanchi yilda Epson kompaniyasi Epson EP-101 ni yaratgan. (1968-yilda)

Klaviatura haqida savollar.

1

- Birinchi klaviatura qachon tashkil etilgan.
- (1970 yilda)

2

- Birinchi yozuv mashinasi kim tomonidan ixtiro qilingan.
- (Kristofer Latham Sholes)

3

- Zamonaviy klaviatura nimalar asosida yaratilgan.
- (mexanik yozuv mashinalari)

Xulosa

Ko'rgazmali metod informatika fanida eng samarali usullardan biri bo'lib u o'quvchilarning mavzuni tez, chuqur va aniq tushunishga yordam beradi. Ko'rgazmali materiallar orqali o'rgatilgan mavzular esda uzoq saqlanadi, o'quvchilar amaliyotga tayyor bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.



1. Kormen, T. H., Leiserson, C. E., Rivest, R. L., & Stein, C. (2009). Introduction to Algorithms (3rd ed.). MIT Press.
2. Ahmedov A. "O'quvchilarning bilimlarini baholashda zamonaviy pedagogik texnologiyalar" – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
3. Knuth, D. E. (1997). The Art of Computer Programming, Volume 1: Fundamental Algorithms (3rd ed.). Addison-Wesley.
4. Qodirov S.R. "Axborot texnologiyalari va ta'lim jarayoni" – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2019.
5. Karimov O. "Pedagogik baholashning nazariyasi va amaliyoti" – Toshkent: Sharq, 2021.
6. Norboyeva D. "Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va baholash" – Toshkent: Ilm Ziyo, 2018.
7. Bekmurodov U. "Ta'lim sifatini oshirish usullari" – Toshkent: Fan, 2020.